

OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISH VAQTIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Abdullayev B.T.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori



Annotatsiya. Maqolada ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari, yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlashni tashkil etish zarurati, jamoat joyi tushunchasi va turlari, ommaviy tadbirlarning toifalari, ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari, ushbu qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ommaviy tadbirlar, yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar, jamoat joyi, ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari, ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik.

Abstract. The article analyzes the legal basis for ensuring public safety during mass events, the need to organize the maintenance of public order during meetings, rallies, demonstrations, the concept and types of public places, categories of mass events, rules for holding mass events, and issues of liability for violating these rules.

Keywords: public events, meetings, rallies, demonstrations, public space, rules for holding public events, liability for violating the rules for holding public events.

O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida [1] davlat va jamoat xavfsizligi asosiy strategik milliy ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Uning asoslari shaxs, mulk, davlat hokimiyati, jamoat va iqtisodiy xavfsizlikka qarshi qaratilgan turli tahdidlar, jumladan, jinoiy harakatlarning amalga oshirilishi natijasida buzilishi mumkin.

Oxirgi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning bevosita rahnamoligida "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etilib, mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etildi, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi [2].

Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati yanada optimallashtirilib, uning negizida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilgani, tizimning eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkonini bermoqda.

Shuningdek, sohadagi islohotlar doirasida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish, ularni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini va jamoat tartibini saqlashni kuchaytirish maqsadida, bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ma'lumki, fuqarolar yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar orqali

o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshiradilar. Ommaviy tadbirlar vositasida fuqarolar hokimiyat organlari e'tiborini o'tkir ijtimoiy muammolarga qaratishlari mumkin. Bundan tashqari, mazkur tadbirlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa huquqlarini amalga oshirish va qondirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning o'z ijtimoiy faolligini mamlakat qonunlari doirasida mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqini ta'minlaydi (38-m). Konstitutsiyaviy normaning tahriridan ko'rinib turibdiki, fuqaroning ushbu siyosiy huquqini amalga oshirish mexanizmini belgilovchi qonunning qabul qilinishi nazarda tutilgan. Hozirgacha bunday qonun qabul qilinmagan, biroq mamlakat hukumati tomonidan tasdiqlangan ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari amal qiladi [3].

Ommaviy tadbirlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va o'tkazish ichki ishlar va milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat tartibini namunali ta'minlashga bog'liq. Yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlash uchun tegishli ommaviy tadbirni o'tkazishning ma'muriy-huquqiy rejimini yaratuvchi ma'muriy-huquqiy vositalar majmuasi zarur bo'ladi. Ma'muriy huquqqa oid ilmiy adabiyotlarda

“jamoat tartibi” kategoriyasiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud.

Jamoat tartibi keng va tor (maxsus) ma’noda talqin etiladi. Jamoat tartibi keng ma’noda jamiyatda amalda bo’lgan ijtimoiy normalarga (qonun, axloq va boshqalar) fuqarolarning rioya qilishi natijasida shakllangan ijtimoiy munosabatlar batartibligi holatini anglatadi. Tor ma’noda jamoat tartibi deganda, jamoat joylaridagi tartib vaziyati tushuniladi.

Shunday qilib, jamoat tartibi jamoat joylarida qonun talablarining bajarilishini, huquqiy tartibotni muhofaza qilishni ta’minlaydigan tegishli tartib holatidir.

Yig’ilishlar, mitinglar va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini saqlashning mohiyatini ko’rib chiqishdan oldin “jamoat joyi” kategoriyasini aniqlash zarur. Sababi, bu tadbirlar, odatda, jamoat joylarida o’tkaziladi. Bunday joylar (bog’lar, maydonlar, stadion, ko’cha, guzar, bozor, vokzal, aeroport va boshqalar) deyarli har bir aholi punktida – nafaqat shaharda, balki qishloqda ham mavjud. Odatda, bu yerlarda odamlar gavjum bo’lib, xavfsizlik choralari ko’rish talab etiladi. Demak, jamoat tartibi jamoat joyi bilan bog’liq.

“Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi qonunda ichki ishlar organlari o’zlariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi muhofazasini ta’minlashlari shart (4-m). Ularga “jamoat joylarida, jumladan, ko’chalar, maydonlar, bog’lar, avtomobil yo’llari, vokzallar, aeroportlarda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o’tkazish vaqtida fuqarolar xavfsizligini ta’minlash” majburiyati yuklatilgan (16-m). Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmonida qayd etilganidek, ommaviy tadbirlarni o’tkazishda, shuningdek, bog’lar, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini muhofaza qilishni tashkil etish Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahridagi Milliy gvardiya bo’linmalari tomonidan bevosita amalga oshiriladi [4].

Jamoat joylariga turli xil hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun odamlar to’planadigan joylar kiradi. Bunday joylarda xulq-atvor qoidalarini buzish boshqa shaxslar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat manfaatlariga daxl qiladi.

Jamoat joylarini quyidagi turlarga bo’lish mumkin:

– doimiy, odatda istalgan vaqtda kirish ochiq bo’lgan joylar (maydonlar, bog’lar, ko’chalar,

stansiyalar, aeroportlar, hovlilar va boshqalar);

– davriy, odamlarning ma’lum soatlarda jam bo’lishi uchun mo’ljallangan joylar (kinoteatrlar, konsert zallari, muzeylar, ko’rgazmalar va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalar, bozorlar va o’zga savdo obyektlari, metro va boshqa jamoat transporti va h.k.);

– epizodik, unda odamlarning bo’lishi ehtimol tutilgan joylar (tog’li hududlar, shahar atrofidagi dam olish joylari, plyajlar va odamlarning ommaviy dam olish maskanlari).

Shuni ta’kidlash kerakki, ommaviy tadbirlar deyarli har qanday jamoat joyida o’tkaziladi, ba’zi hollarda ularni o’tkazish bo’yicha cheklovlar va taqiqlar qonun bilan belgilanishi mumkin.

Fuqarolarning ommaviy tadbirlarni o’tkazishga bo’lgan Konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish mexanizmi yuqoridagi “Ommaviy tadbirlarni o’tkazish qoidalarini” bilan belgilanadi. Ushbu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarning ommaviy tadbirlar o’tkazish huquqini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Demak, ommaviy tadbir deganda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy (simpoziumlar, konferensiyalar, qurultoylar va boshqalar), madaniy, ommaviy va ko’ngilochar dasturlarni (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsertlar) o’tkazish maqsadida tashkillashtirilgan teatr, sport, targ’ibot tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy tomoshalar va o’yinlar, musobaqalar va boshqalar), birgalikdagi ishtiroki tushuniladi. Shuningdek, 100 va undan ortiq kishi ishtirok etadigan milliy, diniy, kasb bayramlari ham nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, ommaviy tadbirlar ikki toifaga – Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlarida 200 va undan ortiq kishi ishtirokida o’tkaziladigan birinchi toifaga, ikkinchi toifaga esa barcha boshqa ommaviy tadbirlar kiradi. Birinchi toifadagi obyektlar ro’yxati Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining takliflariga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan, ikkinchi toifadagi obyektlar esa tumanlar (shaharlar) hokimliklarining takliflariga binoan viloyatlar hokimliklari va ularga tenglashtirilgan organlar tomonidan tasdiqlanadi.

Ommaviy tadbirlar uning tashkilotchisi tomonidan ommaviy tadbir dasturiga muvofiq, uni o’tkazishga ruxsatnoma asosida o’tkaziladi. Ommaviy tadbirni tashkil etish va o’tkazish majburiyatini o’z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxslar va 18 yoshga to’lgan jismoniy shaxslar ommaviy tadbir tashkilotchisi deb tan

olinadi. Ommaviy tadbir dasturi — ommaviy tadbir tashkilotchisi tomonidan hokimlik bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan, ommaviy tadbirning maqsadlari, obyekti, sanasi va aniq vaqtini belgilovchi, mas'ul shaxslar, texnik va ommaviy tadbirlarni o'tkazish tartibi (rejasi), muhandislik inshootlari (sahna maydoni, ovozni kuchaytirish, elektr ta'minoti, yoritish va pirotexnika dizayni, tibbiy yordam, ommaviy tadbir o'tkazilgandan keyin hududni tozalash va boshqalar) ko'rsatilgan hujjatdir. Ommaviy tadbir o'tkazishga ruxsatnoma tegishli hokimlik tomonidan qabul qilingan va ommaviy tadbir tashkilotchisiga beriladigan qarordir.

Qonun nafaqat ma'muriy huquq normalarini, balki konstitutsiyaviy va boshqa huquq sohalari ham himoya qiladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning normalari fuqarolarning yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar o'tkazishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini himoya qiladi (Konstitutsiyaning 33-m). Jamoat tartibiga tajovuz qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining yigirma bitta moddasida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etganlik uchun qo'llaniladigan jazo chorasidir. 2019-yilda mazkur Kodeksga ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini buzganlik uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'ndan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishni nazarda tutuvchi alohida 2001-modda kiritildi [5].

Quyidagilar ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik subyektlari bo'lishi mumkin:

- miting, yig'ilish yoki namoyish tashkilotchilari bo'lgan fuqarolar;
- miting, yig'ilish yoki namoyishda qatnashayotgan fuqarolar;
- o'z harakati yoki harakatsizligi bilan tegishli ommaviy tadbirni o'tkazishga to'sqinlik qilayotgan fuqarolar va mansabdor shaxslar.

Yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzish holatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- a) ruxsat etilmagan, ya'ni hokimlikning ruxsatisiz yig'ilish, miting, namoyish o'tkazish;
- b) ommaviy tadbirni o'tkazish tartibini (joyi, vaqti, yo'nalishi) buzish;
- v) ommaviy tadbir o'tkazishda qonun hujjatlarida belgilangan taqiqlarni buzish (masalan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik bilan ag'darib tashlashga chaqiruvlar, ekstremistik bayonotlar, milliy adovatni qo'zg'atish);

g) qonun hujjatlariga muvofiq o'tkaziladigan yig'ilish, miting yoki namoyishni tashkil etishga yoki o'tkazishga, yoxud ularda qatnashishga to'sqinlik qilish, shuningdek ularda qatnashishga majburlash.

Yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar o'tkazish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar ishtirokchilar va tadbirning o'tkazilishini kuzatgan tasodifiy shaxslarni farqlash lozim, ular javobgarlikka tortilmaydi.

Ommaviy tadbirni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ommaviy tadbir ishtirokchilarini xabardor qilish va uni o'tkazish to'g'risida hokimlikka bildirishnoma taqdim etish;
- ko'rgazmali tashviqot vositalarini ishlab chiqarish va tarqatish;
- ommaviy tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish maqsadida amalga oshirilgan qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa harakatlar.

Ommaviy tadbir, agar uni o'tkazish bino va inshootlarning qulashi yoki tadbir ishtirokchilari xavfsizligiga boshqa xavf tug'dirmasa, ushbu tadbirni o'tkazish uchun mos joylarda o'tkazilishi mumkin.

Alohida joylarda ommaviy tadbirlarni o'tkazishni taqiqlash yoki cheklash shartlari qonun bilan belgilanishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish taqiqlangan joylarga quyidagilar kiradi:

- xavfli ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlarga bevosita tutash hududlar (ulardan foydalanish maxsus xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni talab qiladi);
- yo'l o'tkazgichlar, temiryo'l liniyalari va temiryo'llar, neft, gaz va boshqa mahsulot quvurlari, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari;
- sudlar egallab turgan binolarga bevosita tutashgan hududlar, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etuvchi muassasalar hududi va binolari;
- chegara zonasi, agar vakolatli chegara organlarining maxsus ruxsati bo'lmasa.

Madaniyat yodgorliklari hisoblangan obyektlar hududida ommaviy tadbir o'tkazish qoidalarini vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ommaviy tadbirlar mazmuni va yo'nalishiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ko'ngilochar, sport, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ommaviy tadbirning ko'lami u o'tkazilayotgan hudud, uning ishtirokchilari soni hamda jamoat tartibini

saqlashga jalb qilingan ichki ishlar boshqarmasi hamda ularga birlashtirilgan tuzilmalarning kuch va vositalari bilan belgilanadi.

Hududiy asosda ommaviy tadbirlar tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va davlat miqyosida bo'lishi mumkin. Ommaviy tadbirning ahamiyati uning siyosiy yoki boshqa yo'nalishi, ishtirokchilar soni, yetakchilik darajasi, hozir bo'lgan xorijiy delegatsiyalar va vakolatxonalar bilan belgilanadi. Demak, ommaviy tadbirlar paytida jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar bo'limining, milliy gvardiya tuzilmalarining faoliyati ko'p jihatdan ularning turi, ko'lami, ahamiyati va boshqa omillarga bog'liq.

Ushbu faoliyatni ta'minlash maqsadida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi shartnomaning namunaviy shakli tasdiqlanib, ularni tegishli ruxsatnomalarsiz o'tkazish holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida tadbir tashkilotchilariga ichki ishlar boshqarmasi bilan shartnomalar tuzish majburiyati yuklatilgan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun obyektlarni va maxsus vositalar assortimentini sertifikatlash, qo'shni hududlarning aniq chegaralarini belgilash, mavjud binolar, inshootlar va ularning texnik holatini tahlil qilish, muhandislik, aloqa, yong'inga qarshi, evakuatsiya inshootlari, kirish yo'llari va to'xtash joylari, favqulodda vaziyat-

larni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan birlamchi tibbiy yordam punktlari, texnik jihozlar va ehtimol tutilgan zaxiralarni belgilash lozim.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlarining texnik holati, qurilish inshootlarining ishonchiligi va barqarorligini, ularning aloqa, yong'inga qarshi, evakuatsiya va boshqa muhandislik-texnik vositalar hamda xavfsizlik tizimlari bilan jihozlanishi, obyektlar ma'muriyati tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish o'z vaqtida bajarilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash maqsadida doimiy monitoring olib boriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibini saqlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun yuqoridagi Hukumat qarori bilan tasdiqlangan ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini yetarli emas. Yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar vaqtida jamoat tartibini muhofaza qilishning huquqiy va tashkiliy mexanizmini nazarda tutuvchi alohida qonun qabul qilish maqsadga muvofiq. Unda jamoat tartibini muhofaza qilish tartibi, jamoat tartibini muhofaza qilishning turli subyektlari faoliyat ko'rsatish mexanizmi va boshqalar belgilanishi lozim. Bu chora-tadbirlar fuqarolarning ommaviy tadbirlarni o'tkazish huquqini amalga oshirishni takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021-yil 29-noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz/uz/docs/5749291>).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 205-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://lex.uz/docs/2438871>).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021-yil 29-noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz/uz/docs/5749291>).
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz/acts/97664>).

